

GAPIRISHNI O`RGATISHDA QO`LLANILADIGAN MASHQLAR TIZIMI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Tursunov Mirzo Maxmudovich

Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Sayfiyeva Madina Saydullo qizi

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti, 11-5ing-20 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida gapirishni o`rgatish strategiyalari, undagi mashqlar tizimi va zamonaviy texnologiyalar, nutq va muloqot shakllari, monolog, diolog va poliglotlarning umumiy tasnifi, gapirishni o`rgatishdagi tipologik qiyinchiliklar haqida so`z boradi, oliv ta`limda talabalar o`rtasida muloqot, qobiliyat, tilni egallash, diqqatni jamlay olish qobiliyati, ijodkorlik, yangilik yaratish qibiliyati, badiiy va madaniy aloqalar, o`z-o`zini boshqarish, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, qaror qabul qilish qibiliyati va moslashuvchanligi yoritiladi. Maqolada madaniy kompetentsiya orqali jamiyatda allaqachon qabul qilingan, ammo potentsial imkoniyatlarni o`z ichiga olgan madaniy resurslardan foydalanish jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Gapirish, retseptiv nutq, reproduktiv nutq, dialogik nutq, monologik nutq, gapirishga o`rgatish mexanizmi, lingvistik qiyinchilik, extralingvistik qiyinchilik, motivatsiya, induktiv, deduktiv, muloqot, qobiliyat, hamandardlik, tilni egallash, diqqatni jamlay olish qobiliyati, ijodkorlik, yangilik yaratish qibiliyati, badiiy va madaniy aloqalar, o`z-o`zini boshqarish, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, qaror qabul qilish qibiliyati va moslashuvchanligi.

Annotation: This article talks about the strategies of teaching English speaking, the system of exercises and modern technologies, forms of speech and communication, the general classification of monologues, dialogues and polyglots, typological difficulties in teaching speaking, discusses communication, ability, language acquisition, concentration, creativity, innovation, artistic and cultural communication, self-management, perseverance, initiative, decision-making among students in higher education. Ability and flexibility are highlighted. The article discusses the processes of using cultural resources that are already accepted in society through cultural competence, but include potential opportunities analyzed.

Key words: Speaking, receptive speech, reproductive speech, dialogic speech, monologic speech, mechanism of teaching to speak, linguistic difficulty, extralinguistic difficulty, motivation, inductive, deductive, communication, ability, empathy, command of language, ability to concentrate, creativity, ability to innovate, artistic and cultural competencies, self-competencies, self-control, resilience, initiative, decision-making ability and flexibility.

Аннотация: В данной статье говорится о стратегиях обучения говорению на английском языке, системе упражнений и современных технологиях, формах речи и общения, общей классификации монологов, диалогов и полиглотов, типологических трудностях обучения говорению, обсуждаются общение, способности, овладение языком, концентрация, творчество, новаторство, художественное и культурное общение, самоуправление, настойчивость, инициативность, принятие решений среди

студентов высших учебных заведений. Выделены способности и гибкость. В статье рассматриваются процессы использования культурных ресурсов, которые уже приняты в обществе через культурную компетенцию, но включают потенциальные возможности проанализированы.

Ключевые слова: Говорение, рецептивная речь, репродуктивная речь, диалогическая речь, монологическая речь, механизм обучения говорению, языковая трудность, экстралингвистическая трудность, мотивация, индуктивная, дедуктивная, коммуникация, способности, сочувствие, владение языком, способность концентрироваться, творчество, способность к инновациям, художественные и культурные компетенции, самокомпетенции, самоконтроль, стойкость, инициативность, способность принимать решения и гибкость.

Gapirish boshqa nutq faoliyati turlari bilan chambarchas bog'langandir. O'quvchi tinglab tushunish malakasini qanchalik yaxshi egallagan bo'lsa, gapirish ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi. O'quvchi mazmunini qabul qila olmasa, tushuncha olmasa ma'lumot javob qaytarish qiyin. O'qish, gapirish bilan aloqador. O'quvchi o'qigan ma'lumot orqali gapiradi, ma'lumot beradi. U qanchalik ko'p o'qisa, shuncha gapirish uchun ma'lumot to'playdi. O'qish-gapirish uchun ma'lumot manbai hisoblanadi²⁴. O'quvchi yozuv orqali o'qigan, tinglagan, gapirgan materiallarini, ma'lumotini yozma ifodalaydi. Yozuv ham gapirish ma'lumotini, materialini esda qolishda yordam beradi. Demak, gapirish faoliyati boshqa nutq faoliyatları bilan uzviy bog'liq. Gapirish – biror fikrni izoh etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Avval o'yla, keyin so'yla deyilishi beziz emas. "O'yla" qismidagi fikr paydo bo'lishi, "So'yla"da esa uni nutq harakat sezgisi (analizatori orqali "bayon etish") tomonlari nazarda tutiladi. Birinchisi – til materialining qo'llanilishidir, ular leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalari deyiladi, ikkinchisi – fikr ayttilishi, gapirish malakasi nomi bilan yuritiladi. Chet tilda gapirish uch qismidan iborat nutqiy faoliyatidir. Dastavval gapirishga moyillik (motivatsiya) bo'lishi taqozo etiladi. Ushbu til vositasida fikr aytish ehtiyoji tug'iladi.²⁵ Nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo bo'lsa, biror axborot berish, savolga javob qaytarish yoki nonutqiy harakat (masalan: iltimos, buyruq) ni ijro qilishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati paydo bo'ladi. Fikrimiz izoh qilish qismiga esa analiz, sintez, amallari ishga tushadi. Buning uchun xotirada tutish xizmat qiladi. Paradigmatik bog'lanish mavjud. Paradigmatik aloqada ichki bog'lanishlar so'zlarning turli belgilariga binoan taqqoslanishi kuzatiladi. Ayttilishida bir xil yozilishida farq qiladi. (see-sea, two-too ma'nosi yaqin (big-large) zid ma'noli (go-come)). Gapiruvchi xotirada tayyor turgan so'zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda ona tili hodisalarini xotirada tayyor turadi. Interferentsiya paydo bo'ladi (masalan: chet tili va ona tilidagi so'z

²⁴ Jamol Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 2012

²⁵ Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T.:Sharq, 2003

tarkibi bunga misol bo'ladi). Gapirishning uchinchi qismi ijro etish: fikrni bayon etish, talaffuz qilish: Uchala qismining amal qilishi nutq faoliyati turlaridan gapirishni yuzaga keltiradi. Chet tilda gapirishni o'rgatishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Qiyinchiliklar ekstraliningvistik, psixologik, lingvistik bo'lishi mumkin. Ekstraliningvistik qiyinchiliklar: Gapirishni kimgadir, nimagadir qaratilishi. Gapirishda nutq vaziyatida bo'lishi. Vositalarning bo'lishi. Gapirish ehtiyoji bo'lishi. Gapirishda imo-ishoraning, harakatning qo'llanilishi. Psixologik qiyinchiliklar ham muhimdir. Psixologik I.F.Zimnniya fikrni bayon qilishning o'zi "ovchi", shakllantiruvchi, amalga oshiruvchi psixologik tuzilishini beradi. Eng avvalo gapirish uchun stimul rag'batlantiruvchi undovchi omilning bo'lishi, fikrning shakllanishiga olib keladigan ehtiyojdir, sababdir. Buning uchun tashqi va ichki ta'sir bo'lishi zarur, unda ehtiyoj tug'iladi. Psixologik nuqtai nazardan gapirish uchun til materialini bilish zarur, ular gapirishning mexanizmlari hisoblanadi. Gapirish yana ikkita psixologik qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi: fikrni bayon qilish, shaklni o'ylab ko'rishga imkon kamligi va ifodalanishning bir onda sodir bo'lishi. Gapirishning avtomatlashgan va avtomatlashmagan tomonlar ham qiyinchilik bilan bog'liq. Tafakkur xotira ham gapirishni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Gapirishni o'rgatishda lingvistik qiyinchiliklar ham ta'sir qiladi. Gapirish uchun kerakli leksik, grammatik materialini, gapirish namunalarni to'g'ri tanlangan bo'lishligi, to'g'ri ohangda, ritmda, to'g'ri talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar, nutq namunalari rejimlarini qulay olishdagi qiyinchiliklar, gapirish adabiy tilda emas jonli tilda sodir bo'ladi, gapirish jumalari qisqa tuziladi. Masalan: "Have you? And you?". Gap qisqartirish keng qo'llaniladi. Tayyorlangan nutq deyilganda, o'quvchi tayyorlanishi uchun ma'lum mavzu, vaqt berilishi, kerakli vositalar, so'zlar, nutq namunalari oldindan o'rgatilishi, uyda tayyorlanishi tayanchlar bo'lishi ko'zda tutiladi. Tayyorlanmagan nutqni spontan nutq ham deyiladi. Bundan ilgaridan tayyorgarchilik ko'rildi. Chet tilda gapirishga o'rgatishning mazmuniga lingvistik, psixologik va metodik qismlar kiradi. Lingvistik qismga gapirish uchun zarur bo'lgan til va nutq materiallari, gap tuzilishlari, nutq namunalari kiradi. Lingvistik qism ustida to'xtalganda ekstrallingvistik elementlarni imo – ishora, harakat va boshqa vositalarni ham yodda tutish zarur. Psixologik qismga gapirish malakalarini egallash kiradi. U reproduktsiyadan, o'rniga qo'yish, o'zgartirishdan, kengaytirishdan, qo'shish, aralashtirishdan iboratdir.²⁶ Reproduktsiya o'quvchi o'qituvchidan yoki monogrammadan eshitganini, tinglaganini aynan o'zini qaytarishdan iborat. U qisman so'zlarni almashtirishi ham mumkin. Gapirish ikki xil shaklda amalgalashiriladi: 1) monologik va 2) dialogik. Kengaytirishga ega nutq namunasi, gapning strukturasi kengaytiriladi. Masalan: I have a book. I have an English book. I have an interesting English book. I have an interesting English book at home. Metodik qismdagi gapirish metod, usullarning yo'llarini qo'llash tushuniladi. Bunda o'quvchilar tayanch vositalaridan foydalana olishlari muhimdir. Monologik nutq gapirishning bir shakli bo'lib, so'zlovchi tomonidan bajarilgan. Monologik nutq (MN) ham o'ziga xos xususiyatlariga,

²⁶ Кўчибоев А. Хорижий тилларга ўргатишнинг коммуникатив методикаси. Самарқанд-2010

qiyinchiliklarga ega. Ular quyidagilar: Monologik bir kishi tomonidan bajariladi. U rejali bo'ladi. U qisman tayyorlangan bo'ladi. U mantiqiy bog'langan. U bir kontekst, mant asosida olib boriladi. Unga sharoit ta'sir qiladi. Uslub ta'sir qiladi. Monologik nutq ta'sirchan, his-hayajonli, kimgadir, nimagadir qaratilgan bo'ladi. E.I.Passov monologni: "1) davomli, 2) mantiqiy, ketma-ketlikda, mazmunan tugallangan bo'ladi", deydi. G.V.Rogova, M.Ya.Demyanenko monolog nutqqa o'rgatishni 3 bosqichga bo'lsalar, S.F.Shatilov 2 bosqich mavjud deydi. J.Jalolov, O'. Hoshimov va boshqalar metodlar 3 ta bosqichni ko'rsatadi. 1 – bosqich. Tayyorlovchi bosqichi. MN.ni o'rgatish uchun kerakli til materiallarini, strukturalarini, nutq namunalarini tanlash, o'rgatish, tayyor monologlarni yodlatish kabi mashqlar o'rgatiladi. 2 – bosqish. O'rganilgan til materiallari, nutq namunalari, vositalar, tayanchlar asosida kichik monologlar tuzishga o'rgatish bosqichi. 3 – bosqich. Erkin monolog tuzish, monologni rivojlantirish bosqichi. Dialogni nutq (DN) gapirishning bir shakli bo'lib, 1 tadan ortiq so'zlovchi tomonidan bajariladi. DN ning ham o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari bor. Ular quyidanilar: Dialog tezda javob (reaktsiya) qilish zaruriyatdir. Dialog faqatgina savol – javobdan iborat emas. Har bir so'zlovchi o'z maqsadini ko'zlaydi. Dialogda qatnashuvchilar bir-birining sharoitlarini, vaziyatlarini bilgan taqdirda dialog davom etadi. Dialogda qatnashuvchilar oldindan tilning mazmunini bilishlari qiyin. Dialogda qatnashuvchilardan biri unga yetakchilik qilishi zarur. Dialogda gap qistirish, luqma tashlash (repleka), vosita, sharoit muhim o'rinn tutadi. Gap qistirish luqma tashlash lingvistik adabiyotlarda dialogning birligi deb qabul qilinadi. Dialog o'rgatishning 3 bosqichga bo'lish mumkin. (G.V.Rogova ham shu fikrda).²⁷ 1-bosqich. Tayyorlovchi bosqich. Dialog uchun til materiallarini, vositalarining, eng kerakli luqmalarini tanlash va ularni tuzishni o'rgatish. 2 – bosqich. Namuna asosida dialoglar tuzishni o'rgatish. 3-bosqich. Mustaqil dialog tuzish bosqichi, dialogni rivojlantirish bosqichi. Hozirgi metodikada dialogni 2 yo'l bilan o'rgatilishi ma'lum: deduktiv (umumiyyan xususiyga yo'nalgan) va induktiv (xususiydan umumiyyga). Deduktiv usulda dialogning yaxlit namunasiga suyanib ish ko'rildi. Namuna dilog birliklari majmui sifatida avvalo tinglab tushunishga beriladi, so'ngra u yod olinadi, keyinchalik leksik o'zgarishlar qilib, qismga-qism ishlab chiqiladi. Biroq bunda o'quvchi til materiallarini nutqda mustaqil qo'llashga o'rganmaydi, yodlashga o'rganib qoladi. Induktiv usullar dialogni kichik birliklaridan boshlab mustaqil fikr yuritish mashq qilinadi. Bunda ham qolib namunadan foydalanish taqilganmaydi, lekin yodlash uchun emas, unga taqlid qilish maqsad qilib qo'yildi. Hozirgi davrda gapirishni o'rgatishda monologdan boshlash kerakmi yoki dialogdan degan masala bahsga sabab bo'lyapti. Ba'zi metodistlar dialogdan boshlab kerak desalar, ba'zi monologdan boshlash kerak deydi. Hozirgi paytda ikkala shaklni-dialog, monologni bir vaqtning o'zida o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Lekin monolog bir oz ilgarilashi mumkin. Har qanday faoliyatni o'rgatish paytida mashq markaziy o'rnini egallaydi. Tayyorlovchi va nutq mashqlari gapirish ko'nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o'taydi. Tayyorlov deganda, gapirishning

²⁷ Xan S. Jo'rayev L. Inogamova A. Kids' English. Toshkent, 2014

leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmariga dahldor mashqlar tushuniladi. Ular til hodisalarining shakliy (formal), ma'naviy (semantik), qo'llanish (funktsional) qiyinchiliklarni oldini olishga, sodir bo'ladigan xatolarni to'g'rila shga harakat qiladi. Nutqiy mashqlarda esa tayyorlanmagan va tayyorlangan nutq sodir etiladi. Tayyorlangan nutq mashqlari: taqlid qilish, shaklini o'zgartirib aytish, jumlanı taqlidiy yoki mustaqil tuzish va ularni guruhlab aytish. Nutqiy mashqlar: tayyorlangan mashqni malakalarini o'stirishga mo'ljallangan mashqlar: tayanch so'z, gapirish rejasi, sarlavha kabilarga suyanib, fikrni o'zgartirish va to'ldirib bayon etish; axborot manbalari (rasm, kino va film, matn kabilalar) dan foydalanib, fikr izhor etish; o'rganilgan mavzuga asoslanib fikr aytish. Tayyorlanmagan nutqni o'rgatish mashqlar: ona tilidagi hikoya, rasm, ovozsiz film axborot asoslariga tayanib gapirish, oldin ko'rgan yoki o'qigan. O'ylagan, hayolidan o'tkazgan fikr mulohazalaridan tarkib topgan hayot tajribasiga kelib chiqib gapirish. Ingliz tili darsining boshlanishida og'zaki nutq mashguloti o'tkazish hozir keng qo'llanilmoqda. U eng ko'pi bilan 10 minut davom etadi, tinglab tushunish, gapirish mashqlari orqali amalga oshiriladi.²⁸ Og'zaki nutq mashg'ulotini o'tkazishdan maqsad o'quvchi, talabalarni yodidan ko'tarilgan so'z, ibora, namunalarni esga tushirish, inglizcha tinglash, gapirish uchun nutq organlarini tayyorlash, ularni inglizcha muhitga tushirishdir. Ma'lumki, o'quvchi, talaba inglizcha muhitga tushsa, ularni dars davomida inglizcha tinglashi, gapirishi osonlashadi. Inglizcha muhit rag'batlantirishlik, turtkilik, undashlik o'mini egallaydi. Oldingi o'rganilgan leksik, grammatik, fonetik materiallarni, nutq namunalarini esga tushirish yangi materialni tushuntirishga ham tayanch, ko'prik bo'ladi. Og'zaki nutq mashg'uloti uchun oldingi darslarda o'rganilgan til materiallari, iboralar, nutq namunalarini material bo'ladi, lekin mazmuni notanish, yangi, qiziqarli ma'lumot beradigan bo'lishi zarur. Mazkur mashqlar o'quchilarining ham lug'at boyligini oshiradi, ham gapirishga istak-xoxish beradi va ularning og'zaki nutqini o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmni inglizcha tasvirlatish, gapirtirish ham o'z metodikasiga ega: so'zlar, iboralar doskaga yoziladi, o'qiladi, ma'nosi esga tushiriladi; har bir o'quvchi, talabaga rasmga qarab doskadagi va biladigan so'zlar orqali gap, savol tuzdiriladi; rasmda nimani, kimni ko'rayotganligi so'raladi; rasmda ifoda etilgan voqelik, vaziyat so'raladi, ingliz tilida rasm tasvirlatiladi, hikoya qildiriladi. Rasm o'rniga diafilm, filmni olish mumkin. Darsda o'quvchi, talabani ko'proq ishtirok ettirish uchun yuqorida har bir mashqni ko'proq o'quvchi, talabani o'zi bajarishi ma'qulroqdir.

Gapirish ko`nikmasining rivojlanishi turli xil subkompetentsiyalardan iborat. Ushbu kichik ko'nikmalar talaffuz, grammatika va so'z boyligidir. Gapirish qobiliyatlarini rivojlantirish darsda berilgan topshiriqlar va mashqlardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Kerakli topshiriqlar va mashqlarni taqdim etishdan oldin, qisqacha ikki terminga izoh beramiz. "Vazifa" atamasi kommunikativ muammolarni har xil vaziyatda hal qilishni anglatadi.²⁹ Vazifalar mustaqil ish uchun kirish vazifasini bajaradi va amalga oshirishning turli usullarini taklif etadi. Boshqa tomondan, mashqlar takrorlash va konsolidatsiya qilish

²⁸ Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007

²⁹ Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari

yo'li bilan hal qilinadigan muammolarga qaratilgan. Tilshunoslik va vaziyatli hodisalar asosan alohida ajratilgan holda ko'rib chiqiladi, bu esa mashqlarga bir o'lchovli xususiyat beradi. Gapishtish ko'nikmalari uchun mashqlarning yagona tipologiyasi mavjud emas. Odatda didaktik va uslubiy qo'llanmalarda kommunikativ mashqlar sifatida keltirilgan. Umumiy tuzilish yoki bo'linma qiyin, chunki o'qituvchilar va o'quvchilarga talablar har xil. Jismoniy mashqlar tipologiyasini, masalan, mahorat darajalariga qarab yaratish mumkin. Keyin bizda o'zgaruvchan, har xil va nihoyat erkin so'zlash uchun vazifalar va mashqlar mavjud. Agar so'zlashuvni dialogik va monologik nutqqa bo'lishdan kelib chiqadigan bo'lsa, monologik va dialogik nutqni rivojlantirish uchun vazifalar va mashqlarni ta'minlaydigan mashqlar tipologiyasi natijalari. Bir nechta mualliflar tomonidan taklif qilingan mashqlarning yana bir tipologiyasi quyidagilardir:

- gapishtishga tayyorlovchi vazifalar va mashqlar,
- gapishtishni mustahkamlovchi vazifalar va mashqlar,
- gapishtishni yaratuvchi vazifalar va mashqlar,
- gapishtishni simulyatsiya qiladigan va haqiqiy muloqotga yaqinlashadigan vazifalar va mashqlar.

Mashq tipologiyasining bunday tasavvurida gapishtishni rivojlantirish bosqichlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Nutqni oldindan tayyorgarliksiz qurish yoki tuzish yoki taqlid qilish mumkin emas. Gapishtishga tayyorlovchi topshiriqlar va mashqlar. Bunday topshiriqlar va mashqlar taqlid xarakteriga ega va turlicha emas. Bundan tashqari, ular o'qituvchi tomonidan qattiq nazorat qilinadi va faqat reproduktiv mashqlarning bir qismidir.

a) talaffuz va artikulyatsiyani yaxshilaydigan vazifalar va mashqlar va b) so'z boyligini oshirish uchun vazifalar va mashqlar o'rtasida farq qilinadi. a) Talaffuzni va diskriminatsion tinglashni takomillashtirish. Bu yerda mashq va topshiriqlarning ikki turi ajratib ko'rsatiladi. Bular: 1. O'quvchilar eshitganlari talaffuzini iloji boricha taqlid qiladigan taqlid mashqlari. 2. Diskriminatsion eshitish, unda eshitilgan tovushlar va bir xil tovushlarni eshitadigan so'zlar, shuningdek sintagma va jumlalar belgilanishi kerak. Ushbu mashqlarning maqsadi o'quvchining qulog'ini o'rgatish va chet tili tovushiga ko'nikishdir. Talaffuz mukammal bo'lishi shart emas, lekin tushunarli bo'lishi kerak, shunda muloqotda tushunmovchiliklar bo'lmaydi.

b) So'z boyligini shakllantirish

1. O'rganuvchilar ma'lum bir naqsh bo'yicha qisqa og'zaki suhbatlar yaratadigan juftlik ishi. Bunday dialoglar odatda ikki yoki uchta jumladan iborat bo'lib, ular qayta-qayta takrorlanadi.

2. So'zni eslab qolish tezligiga qaratilgan zanjirli mashqlar, assotsiatsiya o'yinlari, rasm bilan boshqariladigan mashqlar. Bu vaqt bosimi ostida amalga oshiriladigan va so'z boyligini takrorlash uchun juda mos bo'lgan so'z mashqlari (masalan, chaydonni qadoqlash).³⁰ Lug'at bilan ishlashda og'zaki nutq ustuvor ahamiyatga ega va o'quvchilarga

³⁰ Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007

yozma yuz ularni mustahkamlagandan keyingina berilishi kerak. Kontekst ham muhimdir. Barcha so'zlar, jumlalar, mnemonika kontekstda etkazilishi kerak.

3. Nutqlardan foydalanish mashqlari: Ushbu mashqlarning maqsadi nutqlarni egallash va mustahkamlashdir. Bu erda asosiy e'tibor formulali iboralarga, masalan, salomlashish, minnatdorchilik va so'rovlar, kechirim so'rash, o'zingizni tanishtirish va h.k.ga qaratiladi. Avvalo, ushbu mashqlar vaziyat va maqsadli guruhga mos ravishda ishlatilishi kerak.³¹ O'quvchilarda barcha qiyin muloqot vaziyatlari uchun tayyor sintagmalar bo'lishi kerak. Nutqlar faqat bitta so'zdan iborat bo'lishi mumkin va odatiy bo'lishi kerak.

Ushbu maqolaning maqsadi - nutq qobiliyatlarini chet tilini o'qitishda ko'maklashadigan muhim ko'nikmalardan biri sifatida tavsiflashdir. Asosiy maqsad o'z-o'zidan va ravon gapirish uchun, tarjima qilingan tilda to'g'ri qo'llashni o'rganish kerakligini isbotlashdir. Gapirish - bu psixologik va jismoniy jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab faoliyat. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi uchun til bilan amaliy mahoratni yaratish, har bir o'quvchi faoliyatini, ijodini ko'rsatishga imkon beradigan bunday o'quv usullarini tanlash kerak. O'qituvchi sifatida muvaffaqiyat qozonish uchun, o'quvchilarda tilni qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirish kerak.

Bu o'quvchilarni birinchi navbatda nutq haqida xabardor qiladi. Sinfda so'zlash uchun doimo vaqt va makon yaratilishi kerak. O'quvchilar suhbatlar va munozaralarga odatlanib, uni tabiiy narsa sifatida qabul qilishlari uchun ma'lum bir tartib paydo bo'lishi kerak, chunki darslikdagи dialoglar suhbatlarni sun'iy ko'rinishga olib keladi. Talabalardan xato qilmasdan gapirishni talab qilmaslik kerak. O'qituvchi sifatida talabalar orasida to'siqlar va qo'rquv bilan gapirmasdan, erkin gapirishga intilish kerak. Shuning uchun har doim ijobiy fikrlar bildirilishi va o'quvchilar rag'batlantirilishi kerak. Fikr-mulohaza erkin bayon etish, tarjima qilingan tilda uni qabul qilish sinfda haqiqiy muloqotni yaratadi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi va ijobiy ish muhitini yaratadi. Sinfda muloqotni rivojlantirishda iloji boricha tez-tez og'zaki sinovlar o'tkazish kerak. Lug'at va grammatika har doim ham yozma ravishda tekshirilishi shart emas, aksincha ular suhbat vazifasi sifatida tekshirilishi kerak. Nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlarning yagona tipologiyasi mavjud emas. Nutq vositalarining doirasi keng va xilma-xil bo'lishi, o'quvchilar doimo tayyor sintagmalarga ega bo'lishlari kerak. Natijada ular yordamida qiyin suhbat sharoitida ham yo'l topa oladilar. Ilg'or guruhlar uchun iloji boricha simulyatsion,rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, gapirish qobiliyati har qanday chet tilini o'rganishda eng muhimidir. Chet tilini oz bo'lsada biladiganlarning ba'zilari grammatikani osonlikcha o'zlashtirganliklarini, chet el adabiyotlarini zavq bilan o'qishlarini va ovoz yozuvlarini xotirjam tinglashlarini tan olishadi. Ammo ingliz tilida yoki boshqa bir chet tilida gaplashish haqida gap ketganda, ular "men hamma narsani tushunaman, lekin men hech narsaga javob bera olmayman" holatiga tushib qolishadi va bu ko`pincha bilim yetishmasligi yoki cheklangan so`z boyligi emas, balki suhbat amaliyoti va psixologik to'siq

³¹ Xan S. Jo'rayev L. Inogamova A. Kids' English. Toshkent, 2014.

tufayli yuzaga keladi. Tilni rivojlantirishga yordam beradigan vositalar har bir ingliz tilini o`rganayotgan kishi uchun yaxshi yordamdir. Ular sizga suhbat mavzularini, qiziqarli fikrlar va iboralarni, shuningdek har qanday suhbatga muvaffaqiyatli ishlatalishi mumkin bo`lgan yangi iboralarni beradi. Amaliyot, mashq va faqat gapirish kabi mashg`ulotlar kerakli natijalarni beradi. Faqatgina nazariyaning o`zi yetarli bo`lmaydi. Nazariy o`rganilgan bilimlarni amalda albatta qo`llay olishimiz lozim. Masalan, ingliz tilida o`rganilgan yangi so`zlarni suhbat davomida tilimizda ishlatmasak, ular xotiradan chiqib ketadi. Grammatikani a`lo darajada bilish va kuniga minglab so`zlarni yodlash chet tilida yaxshi gapira olish uchun yetarli bo`lmaydi. Doimiy muloqot juda muhimdir. Nafaqat ingliz tilini, balki boshqa chet tillarini ham xuddi pichoqni yaxshi kesishi uchun charxlagandek har doim charxlab turish shart. Tilda doimiy muloqot bo`lmasa, uni tezda unutish mumkin. Shuning uchun o`rganilayotgan chet tillarini doimiy ravishda “charxlab” turish kerak. Chet tillarini o`rganish va ularda so`zlashish hozir ko`pchilik insonlarning diqqat markazida. Globallashuv davrida xorijiy tilni bilishlik bu har bir kasb uchun o`ziga yarasha hurmat va obro`-e`tibor desam adashmagan bo`laman va bunda kishining chet tilini qay darajada bilishi albatta uning chet tilidagi nutqi, suhbat davomida namoyon bo`ladi. Gapirish ko`nikmasini har bir o`rganuvchiga o`rgatish davomida ularga o`rganish usullarini hamda metodlarini o`rgatish, ularni talaffuz qoidalari bilan tanishtirib, bilimlarini yanada rivojlantirish, suhbatni va amaliyotni ko`paytirish kabi mashg`ulotlar gapirish ko`nikmasini o`rgatishning bosh omillaridir. Intonatsiya va tovushni to`g`irlashni tushuntirish kerak. Gapirayotganda tushunib, fikr asosida to`g`ri va ravon so`zlashish mashqi gapirish ko`nikmasini ancha rivojlantiradi. Metodikani psixologiya bilan birga olib borish lozim, chunki o`quvchining o`rganish uslubini bilib shu yo`l orqali gapirish ko`nikmasini rivojlantirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Jamol Jalolov. Chet til o`qitish metodikasi. T.: O`qituvchi, 2012
2. Hoshimov O., Yoqubov I. Ingliz tili o`qitish metodikasi. T.: Sharq, 2003 3. Кўчибоев

A. Хорижий тилларга ўргатишнинг коммуникатив методикаси. Самарқанд-2010

4. Xan S. Jo`rayev L. Inogamova A. Kids' English. Toshkent, 2014.
5. Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007
6. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari.
7. G. V Rogova. Methods of Teaching English. — М.: Просвещение, 1975
8. E. Ergashev. Chet til o`qitish jarayonida texnika vositalaridan foydalanish. — Toshkent: O`qituvchi, 1984.
9. P. Hagboldt. Language Learning. Chicago. 1935.
10. Ch. Handschin. Modern Language Teaching. New York, 1940.
11. Zaripova R. A. Chet tillar o`qitish metodikasidan qo`llanma, — T.: O`qituvchi, 1986.
12. Jalolov J. J., Makhkamova G. T., Ashurov Sh. S. English Language Teaching Methodology- T.: 2015

13. Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. The Council of Europe- Strasbourg, 2005.